

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

XAYRULLAEV ZIYOVUDDIN KARIMBAEVICH

**“QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI HISOBLASH VA TO‘LASH
TARTIBI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri

i.f.d., professor Jo'raev A.S. _____
“ _____ ” _____ 2015 y.

Bitiruvchi:

5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi
Xayrullaev Ziyovuddin Karimbaevich

Ilmiy rahbar:

dots. Shirinov S. _____

TOSHKENT-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....		
I BOB.	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va qiymatning iqtisodiy mohiyati.....	
1.2.	Qo'shilgan qiymat solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	
1.3.	Qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning huquqiy asoslari.....	
II BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI (Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani misolida).....	
2.1.	Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hamda soliq solish ob'ektlarini o'ziga xos xususiyatlari.....	
2.2.	Qo'shilgan qiymat solig'inining soliq solish bazasini aniqlash tartibi.....	
2.3.	Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi.....	
III BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASH TIRISH.....	
3.1.	Xorij mamlakatlarining soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i va uni undirish amaliyoti.....	
3.2.	O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini rivojlantirish.....	
	XULOSA.....	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Qo'shilgan qiymat solig'i, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mavjud soliqlar orasida eng murakkab mexanizmga ega bo'lgan soliq hisoblanadi. Odatda, qo'shilgan qiymat solig'ini, realizatsiya qilinuvchi tovarlar bahosi tarkibiga qo'shimcha qiymat sifatida kiritilib undiriluvchi, universal egri soliqlar toifasiga kiritiladi. Ishlab chiqarish va sotishning barcha jarayonlarida yaratiluvchi qo'shilgan qiymatning bir qismi davlat tomonidan byudjetga qo'shilgan qiymat solig'i vositasida olinadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i o'ta muhim o'rin egallaydi. Aynan davlat byudjetini daromad qismini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i boshqa soliq turlariga qaraganda eng faoligi hamda salmoqliligi bilan ajralib turadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini qulaylik tomoni shundan iboratki, u deyarli realizatsiya qilinuvchi barcha tovar, xizmat va ishlardan undiriladi. Shu ma'noda, qo'shilgan qiymat solig'ini undirish uchun davlat nisbatan kam xarajat qiladi. Shuni aytish joizki, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq tushumlari mamlakat Davlat byudjetining solikli daromadlarini qariyb 1/3 qismini tashkil qiladi.

2015 yil uchun, Hukmatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ulkan ustuvor vazifalarni belgilab berilgan. Xususan, 2015 yilda ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalarini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va bugungi kun talablari asosida jihozlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini jadal rivojlantirish, aholini sifatli ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya tozalash tizimlari bilan ta'minlash vazifalari belgilangan. Ushbu maqsadlar uchun davlat byudjeti jami xarajatlarning qariyb 60 foizi yo'naltiriladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 4 trillion 100 million so'm yoki 22,5 foiz ko'p demakdir. Jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga 34,3 foiz, sog'liqni saqlash tizimiga 14,2 foiz mablag' sarflanadi.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. - 2015. - 19 yanvar

Mamlakatimizda bunday ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun katta miqdorda mablag' talab qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i davlat byudjetini daromad qismini shakllantiruvchi soliq bo'lgani bilan, uning soliq stavkasini cheksiz oshirish imkoniyati yo'q. Shu ma'noda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish jarayonini o'rganish dorzarb mavzu hisoblanadi.

Shu ma'noda, bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu soliqqa tortish sohasida dolzarb bo'lgan mavzulardan biriga bag'ishlanganligi shub'hasiz.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash mavzusi ko'plab chet mamlakat va respublikamiz olimlari tomonidan o'rganilib chiqilgan. Respublikamizning taniqli olimlari A.Jo'raev, T.Sattorov, M.M.Pardaev, A.T.Ibragimov, O.Olimjonov, Q. Yaxyoev, N.Haydarov, X.Sobirov va boshqalar o'zlarining ilmiy ishlarida, o'quv qo'llanmalarida mavzuning ayrim jihatlarini yoritgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash jarayonlarida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar etarli.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ishining ob'ekti bo'lib, soliq idoralarining soliq to'lovchilarni qo'shilgan qiymat solig'iga tortish bilan bog'liq faoliyati hamda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash bilan bog'liq faoliyatlari hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash jarayonida yuzaga keluvchi barcha iqtisodiy-ijtimoiy, moliyaviy munosabatlar tadqiqot ishining predmetini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashning nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini o'rganib, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish- bitiruv malakaviy ishining maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va qiymatning iqtisodiy mohiyatini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning huquqiy asoslarini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hamda soliq solish ob'ektlarini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'inining soliq solish bazasini aniqlash tartibini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibini o'rganish;
- xorij mamlakatlarining soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i va uni undirish amaliyotini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini rivojlantirish borasida taklif va tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundan iboratki, bitiruv malakaviy ishida qo'shilgan qiymat solig'ining nazariy asoslari o'rganiladi. Amaliy ahamiyati shundan iboratki, qo'shilgan qiymat solig'ining nazariy asoslari o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini rivojlantirish borasida taklif va tavsiyalar beriladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, mazuning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va qiymatning iqtisodiy mohiyati; qo'shilgan qiymat solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlari; qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning huquqiy asoslari o'rganiladi.

Ikkinchi bobda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hamda soliq solish ob'ektlarini o'ziga xos xususiyatlari; qo'shilgan qiymat solig'inining soliq solish

bazasini aniqlash tartibi; qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi o'rganiladi.

Uchinchi bobda xorij mamlakatlarining soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i va uni undirish amaliyoti; O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Xulosa qismida mavzu bo'yicha chiqarilgan yakuniy fikr-mulohazalar va takliflar yoritilgan.

I BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va qiymatning iqtisodiy mohiyati

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda tovarlar, ish va xizmtalarning narxini va ularning qiymatini bilish o'ta muhim hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida narxlar erkin, talab va taklif asosida shakllanadi. Narx sotuvchi bilan xaridorning savdolashib kelishishi natijasida belgilanadi. Bunda sotuvchi sarflagan xarajatlarini qoplab, foyda ko'rishni nazarda tutsa, xaridor sotib olingan tovardan maksimal naf ko'rishini o'ylaydi.

Ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish xaridorning talab va ehtiyojiga qarab tartibga solinishi – erkin iqtisodiyotning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Biznes faoliyat bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z-o'zini boshqarishi yoki davlat ta'sirida boshqarilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotini rivojlanishi bir tomondan, umumiqtisodiy qonunlar, ikkinchi tomondan o'ziga xos bo'lgan qonunlar asosida ro'y beradi.

Bozor iqtisodiyotining ob'ekti bo'lib tovar va pul xizmat qiladi.

Tovar ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotda markaziy kategoriya hisoblangan tovarni umumiy tarzda «ne'mat» deb ham atashimiz mumkin.


Ne'matlarni turli jihatlariga ko'ra guruhlariga ajratish mumkin. 1-chizmaga qarang.

Ehtiyojlarni qondirishiga ko'ra ne'matlar quydagi turlarga ajratiladi:

-ijtimoiy ne'matlar- jamoat xavfsizligini, aholi tinchligini saqlash, o't o'chirish, milliy mudofaa va boshqalar kiradi;

- individual ehtiyojlarni qondiruvchi ne'matlar- iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalari kiradi;

-ehtiyolarni birgalikda qondiradigan ne'matlar - kutubxona, muzeylar, meditsina xizmati, maktab, institut, saroylar, sport komplekslari va hokazolar.



1-chizma. Ne'matlarning turli jihatlariga ko'ra guruhlanishi²

Ne'matlarni kamyobligiga ko'ra ularni iqtisodiy va noiqtisodiy guruhlarga ajratiladi.

Iqtisodiy ne'matlar tabiat tomonidan cheklanmagan tarzda in'om etilgan. Noiqtisodiy ne'matlarga tabiatda erkin, insonning ma'lum bir ehtiyojini qondirish uchun etarli darajada bo'lgan - havo, suv, quyoshning yorug'ligi va shunga o'xshash ne'matlar kiradi. Iqtisodiy ne'matlar tovar shaklini oladi..


Tovar ishlab chiqarish ijtimoiy mehnat taqsimoti tufayli vujudga kelgan.

Tovar deb ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan ne'matga aytiladi. Ular insonning biron-bir ehtiyojini qondirib quyidagi xossilarga ega:

- biron-bir ehtiyojni qondirish;
- ma'lum miqdordagi tovarni boshqa tovarga almashish xossasi.

Tovarning insonning ehtiyojini qondirish xossasi iste'mol qiymati deb nomlanadi. Tovarning iste'mol qiymati uning uch belgisida - shakli, sifati va naf keltirishida ifodalanadi.2-chizmagan qarang.

² Муаллиф томонидан тузилган.



2-chizma. Tovarlarining xossalari va iste'mol qiymati³.

XVIII-XIX asrga kelib, tovarida mujassamlashgan qiymatning birinchi ta'rifini siyosiy iqtisod klassiklari V.Petti, A.Smit, D.Rikardolar berishdi. Ularning fikricha, har qanday tovar qiymatining asosini unga sarflangan mehnat tashkil qiladi yoki ish vaqti bilan belgilanadi. Tovar ishlab chiqarish uchun ishlovchi turlicha vaqt sarflaydi. Individual ish vaqtida individual qiymatni yaratiladi. Individual ish vaqti ishlab chiqarish sharoiti, ishchilarning malakasi, tajribasiga ko'ra farqlanadi. Bozorda tovarlar ijtimoiy zaruriy ish vaqti bo'yicha sotiladi. Ijtimoiy zaruriy ish vaqti o'rtacha mehnat unumdorligi va mehnat intensivligi asosida tovarlarning asosiy massasini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan vaqtga bilan o'lchanadi.

Qiymat almashuv jarayonida yuzaga chiqadi va almashuv qiymatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy nazariyada qiymatning mehnat nazariyasidan tashqari boshqa nazariyalar ham mavjud.

Qiymat nazariyasining eng jiddiy kamchiliklaridan biri tovarning iste'mol qiymatiga ahamiyat bermasligidir.

³ Муаллиф томонидан тузилган.

Qiymat yaratilishida uy joy xo'jaliklari hamda korxonalarning o'рни va ahamiyati katta.

Uy xo'jaligi	korxonalar	Davlat
• kapital, er, mehnat, tadbirkorlik omillarining egasi • tovar, ish va xizmatlar iste'molchisi	• tavar ishlab chiqarish. ish bajarish va xizmat ko'rsatish • iste'molchi	• tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish • iste'molchi

3-chizma. Qiymat munosabatlarinig sub'ektlari⁴.

Uy xujaligi ishlab chiqarish omillarining bo'lgan kapital, er, mehnat, tadbirkorlik omillarining egasi hisoblanadi, korxonalar esa iqtisodiy faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari hisoblanadi. 3-chizmaga qarang.

Davlat umumiy maqsadga erishish uchun huquqiy va siyosiy hokimiyat orqali xo'jalik sub'ektlari va bozorni zarur darajada nazorat qiladi, ishlab chiqarish va iste'mol bilan ham shug'ullanadi.

Er, kapital, ish kuchi va boshqa vosita egalari ularni korxona, firmalarga sotadilar. Ishlab chiqarish omillarini ishlatilib, tovar yaratadiladi, xizmatlar ko'rsatadiladi.

Jamiyat a'zolari bir tomondan, ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi), ikkinchi tomondan, iste'molchi, boshqa so'zlar bilan aytganda sotuvchi hamda xaridor sifatida namoyon bo'ladilar.

Narx bozorda talab va taklif ta'sirida shakllanadi. Taklifni qanday hajmda, miqdor va tarkibda bo'lishi ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq. Tovarni ishlab

⁴ Муаллиф томонидан тузилган.

chiqarishga, xizmat ko'rsatishga undaydigan, uning hajmini belgilaydigan omillarga bozordagi narx hamda tovarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ketgan xarajatlar kiradi. Ikki omil ta'sirida tovarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdan olinuvchi foyda aniqlanadi.

Tovar ishlab chiqarish ma'lum iqtisodiy resurslar xarajatini talab etadi. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi eng avvalo resurslar cheklanganligi bilan bog'liq. Masalan, er resurs sifatida cheklangan. Undan turli maqsadda foydalanish mumkin. Paxta, bug'doy ekish, uy qurish, korxona qurish va hokazolar. Bir maqsadda foydalanilayotgan erdan, ayni vaqtda boshqa maqsadda foydalanib bo'lmaydi.

Har bir korxona, firma, tadbirkor u yoki bu resursni sotib olib ishlatar ekan, resurslarni sotib olgach, uni samarali ishlatish uchun harakat qiladilar.

Tanlangan resurslarni eng maqbul ishlatish, o'ziga jalb etish uchun qilgan sarf iqtisodiy xarajat yoki zimmadagi xarajatlar deb ataladi.

Iqtisodiy xarajatlar firma, korxona miqyosida biron turdagi tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni qanchalik samarali ekanligini ko'rsatadi. Xarajatlar korxona, firma faoliyagiga baho berishda asosiy, ko'rsatkich bo'lib, turli guruhlariga bo'linadi: real imkoniyatlardan qay darajada foydalanganlikni aniqlashda haqiqiy va zimmadagi xarajatlar; qo'shimcha xarajatlar samarasini aniqlashda me'yoriy xarajatlar; iqtisodiy resurslarni jalb etilishiga ko'ra ichki va tashqi xarajatlar; ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq va uning qay darajada optimal ekanligini aniqlashda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar, yalpi, o'rtacha xarajatlar kabi guruhlariga bo'linadi.



4-chizma.Korxona xarajatlarni guruhlanishi⁵.

Iqtisodiy xarajatlar ichki va tashqi xarajatlardan iborat. O'z navbatida, tashqi xarajatlarga chetdan sotib olingan mehnat resurslari, xom ashyo, yonilg'i, transport xizmatlari, energiya va boshqalar kiradi. Ichki xarajatlarga resurslarni chetdan olganda to'lanishi mumkin bo'lgan pul miqdori bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan bino, inshoot, mashina, uskuna, ishlatish uchun qarzga olingan mablag', unga to'lanadigan foiz ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashqari, ichki xarajatlarga normal foyda ham kiradi.4-chizmaga qarang.

Normal foyda tadbirkorlik talantini saqlab, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratadi.

Boy berilgan imkoniyat xarajatlari deganda o'z resurslarin muqobil ishlatish yo'li bilan olish mumkin bo'lgan daromadlar tushuniladi. Masalan, binoni ijaraga berib, ijara haqi olishi, tadbirkor menejerlik qilib ish haqi olishi mumkin.

Haqiqiy xarajatlar deganda buxgalteriya kalkulyatsiyasida aks etgan xarajatlar tushuniladi.

Xarajatlar korxona xoxish – irodasiga bog'liq bo'lmagan holda ham o'zgarishi mumkin. Bunga misol qilib resurslar narxi, xizmatlar haqining

⁵ Муаллиф томонидан тузилган.

o'zgarishlarini keltirish mumkin. Har bir tadbirkor, menejer o'z bilganicha hamda boshqalarni tajribasidan kelib chiqib birinchi navbatda isrofgarchilikni kamaytirish, resurslardan tejab-tergab foydalanishga harakat qiladi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan xom ashyo, materiallar va boshqa sarflarni matematik uslublardan foydalanib, minimal darajaga keltirish yo'llarini qidiradi.

Xarajatsiz hech bir iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi. Sarf-xarajatlar foyda olishning sharti hisoblanadi. Korxona foydasi xarajatlarga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Korxonaning xarajatlari tovarlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan sarflar hisoblanadi. Iqtisodiy nazariya tilida iqtisodiy resurslarni topish, xarid etish va ulardan samarali foydalanish sarflari korxonaning xarajatlari hisoblanadi. Tabiatana, xarajatlar moddiylashgan va jonli mehnat sarfini bildiradi, ular tovarlar korxonaga qanchaga tushganligini ko'rsatadi.

Xarajatlar quyidagilarga bog'liq:

-resurslarni xarid etash narxiga.

-resurslarni tejab, kam resurs sarflab ko'proq mahsulot olishga.

Ishlab chiqarish omiliga ko'ra, xarajatlar moddiy va mehnat sarfidan iborat. Moddiy sarflarga misol qilib, bozor narxida xarid etilgan mashina-mexanizmlar, asbob-uskunalar, shuningdek energiya, xom ashyo va materiallarni keltirishimiz mumkin.

Mehnat sarflari ish haqi, sotsial sug'urta xarajatlari, tadbirkorni qoniqtiradigan normal foyda tariqasida bo'ladi.

Mehnat omili ishlab chiqarishning boshqa omillari kabi daromad keltiradi. Bu daromad ish haqi deb ataladi va mehnat omilining yalpi ichki mahsulotdagi hissasini ifodalaydi.

Korxonalarda shartnoma bo'yicha ishga yollanuvchi ishlaydi. Ishga yollovchi uning mehnatiga kelishilgan miqdorda ish haqi to'laydi. Asosiy muammo ana shu to'lanadigan haq miqdori qancha bo'lishini aniqlashda. Klassik siyosiy iqtisod yo'nalishi bu savolga javob berish uchun malakasiz ishchilarning mehnat haqini ob'ektiv mezonlarini belgilashga harakat qilgan. Ularning fikricha, eng oddiy

jismoniy mehnatga to'lanadigan ish haqining o'lchovi bo'lib, bu o'lchov ishchiga yashash uchun nima zarur bo'lsa, shu xarajatlar, yana oilasini boqishi, bolalarini bilim olishi uchun xarajatlarni ham qoplashi kerak.deb hisoblaydilar.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi ish haqiga mehnat bahosi sifatida qaraydi.

Xarajatlar ishlab chiqarishning hajmiga qarab o'zgarishi yoki o'zgarmasi mumkin. Shu nuqtai nazardan xarajatlar ikkiga bo'linadi:

- o'zgaruvchan xarajatlar;

- doimiy xarajatlar.

Doimiy xarajatlar miqdori ishlab chiqarish xajmiga qarab o'zgarmaydi. Ular hatgo ishlab chiqarish bo'lmaganda ham mavjud bo'ladi. Masalan, amortizatsiya, ijara haqi, karz yuzasidan majburiyatlar, renta to'lovlari, sug'urta puli, boshqaruv xodimlari va mutaxassislariga oldindan belgilangan maoshlar kiradi.

Aksincha, ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgarib boruvchi xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlar deyiladi. Ularga misol qilib energiya, materiallar, transport xizmati sarflari, xom ashyo, yonilg'i, ish haqi uchun qilinuvchi sarflarni keltirishimiz mumkin. O'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarish qonuniyati shundan iboratki, ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan ma'lum chegaragacha ular pasayadi, so'ngra bir holatda saqlanadi va nihoyat o'sa boshlaydi. Ishlab chiqarish ma'lum darajaga etgach, mehnat unumdorligi pasaya boshlaydi. Mehnat unumdorligining pasayishi natijada, qo'shimcha ravishda mahsulot olish uchun oldingidan ko'proq xarajat qilishga to'g'ri keladi. Yangi texnologiya joriy etilishi natijasida esa resurslar tejala boshlaydi, xarajatlar pasayadi, chunki yangi texnologiya mehnat unumdorligini oshiradi.

Firma tomnidan ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan tushgan pul uning pul tushumi bo'lib, ketgan xarajatlarni qoplaydi va korxona foydasini tashkil qiladi.

Korxona foydasini ikki yo'l bilan ko'paytirish mumkin:

- xarajatlarni pasaytirish;

-narxlarni oshirish.

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun kamroq resurslar sarflab, ko'proq foyda olish o'ta muhimdir.

Korxona olgan daromadidan xarajatlarni chiqarib tashlansa, qolgan qismi foydani tashkil qiladi.



5-chizma.Korxona foydasining muhim jihatlari⁶.

Foyda olish firma, korxonaning korporativ maqsadi bo'lib, uni iqtisodiy faoliyatining umumlashgan ko'rsatkichi hisoblanadi.

Firma uchun foydaning ikki jihati bor.5-chizmaga qarang.

Birinchisi, foyda massasi, ya'ni uning umumiy miqdori, ikkinchisi foyda normasi, ya'ni uning nima evaziga olingani.

Foyda normasi yuqori bo'lsa ham, uning massasi kichik bo'lishi yoki aksincha, foyda normasi past bo'lgani holda, uning massasi katta bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarishda katta kapital sarf qilinib, ko'p tovarlarni ko'plab chiqarilsa, foyda normasi past bo'ladi, uning massasi esa ko'payadi.

Korxona foydasi avval taqsimlanib, so'ngra ishlatiladi. Foydani taqsimlashda uning bir qismi soliq sifatida davlat byudjetiga o'tkaziladi, yana bir qismi ishchilar o'rtasida ularning foydadagi ishtiroki sifatida va har xil mukofotlar shaklida taqsimlanadi. Nihoyat, foyda investitsiya, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun

⁶ Муаллиф томонидан тузилган.

yo'naltiriladi.

Qo'shilgan qiymat- bu tovar(ish va xizmat)lar qiymatining bir qismi bo'lib, u ishlab chiqarish, savdo va vositachi korxonalarda yaratiladi. Sotilgan mahsulotning bozor bahosi bilan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan material xarajatlar o'rtasidagi farqni qo'shilgan qiymat deb talqin qilinadi.

Boshqa so'zlar bilan bildirilganda qo'shilgan qiymat mehnat vositasini va korxona foydasini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida ham qo'shilgan qiymat miqdorini aniqlash mumkin.

Mazkur Nizomda xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$1. YaF = SST - IT,$$

bunda,

YaF — yalpi foyda;

SST — sotishdan olingan sof tushum;

IT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

$$2. AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda,

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX — davr xarajatlari;

BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ — asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

$$3. UF = AFF + MD - MX,$$

bunda,

UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari;

$$4.STF=UF+FP-FZ,$$

bunda,

STF — soliq to'langungacha olingan foyda;

FP — favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ — favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

$$5.SF= STF-DS-BS,$$

bunda,

SF -sof foyda;

DS - foydadan to'lanadigan soliq;

BS — boshqa soliqlar va to'lovlar.⁷

Yuqorida keltirilgan formulalar asosida qiymat miqdorini aniqlashimiz mumkin. Bunda, ikki toifadagi qo'shilgan qiymat miqdorini hisoblashimiz mumkin.

Qo'shilgan qiymatni aniqlashning birinchi usuli yalpi foyda ko'rstakichiga asoslanadi: yalpi foyda + ish haqi xarajatlari.

Ikkinchi usul asosiy faoliyatdan olingan foyda ko'rsatkichiga asoslanadi: asosiy faoliyatdan olingan foyda + ish haqi xarajatlari.

Uchinchi usul umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda ko'rsatkichiga asoslanadi: umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda + ish haqi xarajatlari.

To'rtinchi usul soliq to'langungacha olingan foyda ko'rsatkichiga asoslanadi: soliq to'langungacha olingan foyda + ish haqi xarajatlari.

Xulosa qilib aytganda, qiymat, baho, narx, narxni shakllanishi, moddiy va mexnat xarajatlari, korxonaning foydasi qo'shilgan qiymatning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1999 й., 2-сон, 9-модда

Qo'shilgan qiymat- bu mahsulot, tovar, ish va xizmatlar qiymatining bir qismi bo'lib, u ishlab chiqarish, ulgurji, chakana savdo va vositachi korxonalarda yaratiladi.

Mahsulotning bozor bahosi bilan uni ishlab chiqarish uchun sarflangan material xarajatlar o'rtasidagi farqni qo'shilgan qiymat deb e'tirof etish mumkin.

Yanada aniqroq xulosa qilganda, qo'shilgan qiymat mehnat vositasini va korxona foydasini o'z ichiga oladi.

1.2. Qo'shilgan qiymat solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri bo'lgan - qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi.

Davlat budjetining daromad qismini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmidan foydalanish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida -1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

G'oya Vilgelm fon Simensga tegishli bo'lsada, qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish birinchi marta frantsuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. M.Lorening taklifidan so'ng, qo'shilgan qiymat solig'i 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba shaklda qo'llanildi. Tajriba natijasida, Frantsiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1968 yildan boshlab joriy etila boshladi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Evropaning boshqa davlatlarning soliq tizimida ham joriy qilindi. 1977 yilda, Evropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan, qo'shilgan qiymat solig'ini tartibga solish maqsadida, hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilindi. Mazkur Direktivada egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Bugungi kunda Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat

budjetlarining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i muhim ahamiyat kasb etadi. Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Shu sababli qo'shilgan qiymat solig'ini «Evropacha» soliq deb ham atashadi.

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega bo'lishining asosiy sababi – ittifoq'qa a'zo mamlakatlar hududida yagona soliq stavkalari va soliqqa tortish bazasini joriy qilinganligidir.

Bundan tashqari, dunyoning boshqa mamlakatlarida - Meksika, Turkiya va Koreyada soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarning salmog'i 50 foizni, AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada - 25-30 foizni tashkil qiladi

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yilda, oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Oborot solig'idan farqli qo'shilgan qiymat solig'i faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Aksincha, oborot solig'i bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan qo'shilgan qiymat solig'i olinadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i muhim o'rnini va ahamiyatga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi qaroriga ko'ra 2013 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 30.8 foizni, egri soliqlar tarkibida esa 60,6 foizni tashkil etishi belgilangan.

1-jadval

**Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlarini
shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati⁸**

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарорлари асосида тузилган.

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014
Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlari	100,00	100,00	100,00
Egri soliqlar	54,27	51,94	40,93
Qo'shilgan qiymat solig'i	32,91	30,82	23,91


2012-2014 yillarda Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlarini shakllantirishda egri soliqlarning ulushi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lganligini kuztamiz. 2012 yilda eri soliqlarning ulushi 54.27%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 40.93%ni tashkil qilgan. Bir vaqtda, qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi ham o'tgan uch yil davomida kamayganligini kuzatamiz. 2012 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlarini shakllantirishdagi ulushi 32.91%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yilda 23.91%ni tashkil qilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'ining o'ziga xos jihati shundan iboratki, u har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladi. Biznes sub'ektlari o'zlarining moliyaviy- xo'jalik faoliyatida mahsulot etkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qo'shilgan qiymat nazariy jihatidan, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farq sifatida qaraladi. Barcha tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Qiymatning ushbu qismi soliqqa tortiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyat - soliqqa tortishning ob'ekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i boshqa soliq turlari bilan umumiy bo'lgan hamda o'ziga xos bo'lgan xarakterli jihatlariga ega. Shu sababli, qo'shilgan qiymat solig'ining umumiy xarakterli jihatlarini boshqa soliq turlarining mazmun-

mohiyati orqali tushunish mumkin. Soliqlar asrlar davomida o'zgarib, davlat siyosatiga moslashib, takomillashib borgan. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliq mexanizmi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Soliqlar jamiyat boshqaruvning turli darajalarida asosiy tartibga soluvchi bo'lib maydonga chiqadi.



6-chizma. Soliqlarni belgilariga ko'ra guruhlanishi⁹.

Soliqlar bu - korxonalar, fuqarolar daromadlarining bir qismini qonuniy asosda, belgilangan miqdor va muddatlarda, davlat byudjeti jamg'armasini tashkil qilish maqsadida davlat ixtiyoriga olinadigan pul mablag'laridir.

Soliqlar, jumladan qo'shilgan qiymat solig'i turli to'lovlar, yig'imlardan shunisi bilan farq qiladiki, u noekvivalent tarzda undiriladi, ya'ni to'langan soliq

⁹ Муаллиф томонидан тузилган.

evaziga hech nima olinmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i soliq tizimining tarkibiga kirar ekan, uning vazifalari soliq siyosati asosida belgilanadi. Soliq siyosatining vazifasi - byudjet daromadlarining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat.

Soliq va soliq tizimi tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsada, ular o'rtasida farq mavjud.

Soliqlar turli belgilarga ko'ra guruhlarga bo'lish mumkin:

-soliqlarni maqsadli ishlatilishiga ko'ra: umumiy va maxsus soliklar;

-soliqqa tortish ob'ektlariga ko'ra: tovar va xizmatlarga, daromad, foyda, mol-mulk, resurslar va hokazolarga solinadigan soliqlar;

-soliqqa tortish xarakteri, mahsulot narxiga qay tarzda qo'shilishiga ko'ra: bevosita va bilvosita soliqlar;

-boshqarish, byudjet daromadlarini tashkil etish darajasiga ko'ra: federal, regional, mahalliy, munitsipal soliqlar;

-soliqqa tortish sub'ektlariga ko'ra: yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar;

- belgilangan soliq stavkalariga ko'ra: proportsional, progressiv, regressiv, qat'iy o'zgarmaydigan soliklarga bo'linadi.6-chizmaga qarang.


Qo'shilgan qiymat solig'i ham boshqa soliqlar kabi doimo jamiyat a'zolarining diqqat markazida bo'lib kelgan, chunki u har bir kishining manfaatiga taalluqli bo'lib, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbaidir.

Respublikamida davlat byudjeti daromadlarining aksariyat qismini soliqlar tashkil qiladi.

Soliq tizimida bilvosita soliqlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bilvosita soliqlarni qo'llashning asosiya sabablaridan biri, bevosita soliqlarni o'zi byudjet daromadlarini shakllantirish uchun etarli emas.

Qo'shilgan qiymat solig'ining fiskal funktsiyasi. Mazkkur soliqlar orqali

korxonalar va fuqarolar daromadining bir qismini davlat idoralarini, mamlakat mudofaasini, noishlab chiqarish sohasini moliyaviy ta'minlash, saqlab turish maqsadida undirib olinadi va davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish. 7-chizmaga qarang.



7-chizma. Qo'shilgan qiymat solig' funksiyalari¹⁰

Qo'shilgan qiymat solig'ining tartibga solish funksiyasi. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu iqtisodiy tarmoqlarining faoliyatini amalga oshirish uchun "soliq muhiti"ni yaratiladi. Milliy iqtisodiy tarmoqlarda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi, sarmoyaning bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.


Qo'shilgan qiymat solig'ining rag'batlantirish funksiyasi. Moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslaridan ishlab chiqarishni rivojlantirishga samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu unktsiy orqali soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni

¹⁰ Муаллиф томонидан тузилган.

mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga qulay muhit yaratadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqning nazorat funksiyasi. Soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortiladigan bazasi, soliqqa tortish ob'ekti, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirish jarayoni mazkur funktsiy vositasida amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining axborot bilan ta'minlash funksiyasi. Ushbu funktsiya yordamida soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi ta'minlanadi.



8-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'ga tortish tamoyillari¹¹

Qo'shilgan qiymat solig'ning etarlilik tamoyili. Soliqqa tortish darajasi xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olshi zarur. Mazkur imtiyozga amal qilinishi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslarini yig'ilishini ta'minlaydi. 8-chizmaga qarang.

Qo'shilgan qiymat solig'ining tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish

¹¹ Муаллиф томонидан тузилган.

tamoyili. Qo'shilgan qiymat solig'i xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirish, texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga rag'batlantirishi zarur.

Qo'shilgan qiymat solig'iga tortishning adolatlilik tamoyili. Qo'shilgan qiymat solig'i va soliqning ushbu turi bo'yicha belgilangan imtiyozlar jamiyat tomonidan adolatli deb tan olingan umumiy ob'ektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'ning oddiyligi va xolislik tamoyili. Qo'shilgan qiymat solig'ning soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishi, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, yagona stavkalar belgilashni ko'zda tutadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining boshqarishga qulaylik tamoyili. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirib olishda samaradorlikka erishish masalasi ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Qo'shilgan qiymat solig'ini yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili. Davlat tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalarini qiyoslash mumkinligi tamoyili. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi soliq stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim.

Bilvosita soliqlar, jumladan qo'shilgan qiymat solig'i ham tovar va xizmat narxiga davlat tomonidan belgilangan ustama tarzida olinadi. U iste'molchilar tomonidan to'lanib, davlat byudjetiga tushadi.

Soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i soliq stavkasini daromadlarga nisbatan belgilash ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Odatda, soliqlar stavkasi quyidagicha belgilanadi:

-regressiv, ya'ni soliq bazasi ko'paygach, soliq me'yori kamayib boradi;

-qatiy miqdorda, soliq bazasining qiymatidan qat'iy nazar belgilanadi;
-proportiional soliq stavkalari – soliq bazasidan qat'iy nazar yagona foizda belgilanadi;

-progressiv, ya'ni soliq bazasining o'sishiga qarab, soliq me'yori ham o'sib boradi.

Soliq stavkalari past belgilansa, byudjetga tushadigan mablag'lar kamayib ketadi. Bu bog'lanish Laffer egri chizig'ida o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'i egri soliq bo'lib, respublikamiz iqtisodiyotini tartibga solishda, davlat byudjeti daromad qismini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i boshqa soliq turlariga nisbatan yangi soliq bo'lib, dastlab Frantsiyada amalga joriy qilingan.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlarida qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilingan.

Yaponiya va AQSh soliq tizimida mavjud bo'lgan, iste'mol solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga mohiyatan o'xshaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ham boshqa soliq turlari kabi bir-xil funktsiyalarni bajaradi va yagona tamoyillarga ega.

1.3. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning huquqiy asoslari

Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning huquqiy poydevori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining me'yorlari bilan belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga asosan, fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar.¹²

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 12-moddasida ushbu kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib

¹² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон

berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari soliqlar deb e'tirof etilishi taakidlangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i esa O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan, umum belgilangan soliqlar tarkibiga kiradi va respublika ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashda soliq to'lovchilar va vakolatli idoralar o'rtasida soliq munosabatlari yuzaga keladi. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'ini belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish va undirish borasida yuzaga keluvchi soliq munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida amalga oshiriladi.

Soliq amaliyotida vakolatli idoralar hisoblangan: davlat soliq xizmati organlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari; bojxona organlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari; moliya organlari — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlarining soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlari ham qo'shilgan qiymat solig'i munosabatlarini tartibga solishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Vakolatli idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishi yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qoidalariga mos kelmaydigan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishni rad etgan hollarda, bunday hujjalarning qonuniyligi sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ammo, yuqorida keltirilgan vakolatli idoralarning normativ-huquqiy

hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi.

Quyidagi hollarda vakolatli idoralarning daxldor normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq emas deb topiladi:

-hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

-soliq munosabatlari sub'ektlarining huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa, soliq munosabatlari sub'ektlarining majburiyatlarining mazmunini, ular harakatlarining asoslari, shartlari, ketma-ketligi yoki tartibini o'zgartirsa;

- taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa;

-qonuniy tushunchalar mazmunini o'zgartirgan yoki qabul qilingan tushunchalarning ma'nosini boshqacha tarzda talqin qilinsa.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatlarini yuzaga kelgan yoki kelmaganligini, usha vaqtda amalda bo'lgan qonun hujjatlar asosida belgilanadi. Yangi qabul qilingan qonun hujjatlari hujjat qabul qilingan sanadan boshlab amalga tadbiq qilinadi. Xullas, soliq javobgarligini yuzaga keltiruvchi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga, javobgarlikni engillashtiradigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega.

Ayrim soliq majburiyatlari uchun javobgarlikni engillashtiruvchi qonun hujjatlarning orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi qabul qilinuvchi hujjatda to'g'ridan-to'g'ri ko'ratiladi. Bunday qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi: soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bekor qilish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini kamaytirish; soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda engillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari.

Yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilovchi, imtiyozlarni to'liq yoki qisman bekor qiluvchi, soliq solinadigan baza oshirilishiga olib keluvchi qonun hujjatlari dastlab matbuotda e'lon qilinadi. Rasman e'lon qilingan paytdan

keyin kamida uch oy o'tgach, qabul qilingan yangi qonun hujjati amalga kiritiladi.

Yangi soliq stavkalari soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari matbuotda e'lon qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan amalga joriy qilinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi chet mamlakatlar bilan soliq munosabatlarini tartibga solish borasida ko'plab xalqaro shartnomalar tuzgan. Mazkur xalqaro shartnomalarda o'zaro soliqqa tortish qoidalar o'z aksini topgan. Bunday hollarda, O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsada, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan qoidalar soliq munosabatlarini tartibga solishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini belgilovchi asosiy soliq qonunchiligi hisoblanadi. Xususan, soliq kodesining VII bo'limi(Qo'shilgan qiymat solig'i) 197- 228 moddalarini o'z ichiga olib, ular quyidagilardan iborat:

- soliq to'lovchilar(197-modda);
- soliq solish ob'ekti(198-modda);
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti(199-modda);
- soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlarni belgilash(200-modda);
- soliq solinadigan import(201-modda);
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi(202-modda);
- tealizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana(203-modda);
- soliq solinadigan bazani belgilash(204-modda);
- soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish(205-modda);
- tovarlarni import qilishda soliq solinadigan baza(206-modda);
- O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olinadigan ishlar, xizmatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari(207-modda);
- soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti(208-modda);
- soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar(209-modda);

- soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari(210-modda);
- soliqdan ozod qilinadigan import(211-modda);
- tovarlarni eksport qilish(212-modda);
- tovarlarning eksport qilinganligini tasdiqlash(213-modda);
- chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) soliq solish(214-modda);
- «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga soliq solish(215-modda);
- xalqaro yo'nalishda tashishlarga soliq solish(216-modda);
- aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlarga soliq solish(217-modda);
- hisobga olinadigan soliq summasi(218-modda);
- hisobga olinmaydigan soliq summasi(219-modda);
- hisobga olinadigan soliq summalariga tuzatish kiritish(220-modda);
- soliq solinmaydigan realizatsiya qilish oboroti mavjud bo'lgan taqdirda, soliqni hisobga o'tkazish tartibi(221-modda);
- hisobvaraqa-faktura(222-modda);
- soliq davri. Hisobot davri (223-modda);
- soliqni hisoblab chiqarish tartibi(224-modda);
- soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi(225-modda);
- soliq to'lash tartibi(226-modda);
- hisobga olinadigan soliq summasi hisobot davrida hisoblab chiqarilgan soliq summasidan oshib ketgan taqdirda, byudjet bilan o'zaro munosabatlar(227-modda);
- soliq summasini qaytarib berish tartibi(228-modda).

Qo'shilgan qiymat solig'i munosabatlarini tartibga soluvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 5-moddasida belgilangan printsiplar asosida qabul qilinadi.



9-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'ga tortish tamoyillari¹³

Solliq kodeksining mazkur moddagasiga asosan, solliq to'g'risidagi qonun hujjatlar solliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, solliq tizimining yagonaligi, solliq to'g'risidagi qonun hujjatlarning oshkoraligi va solliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi printsiplariga mos kelishi zarur.

Solliq solishning majburiyligi printsipli solliqlarning iqtisodiy mohiyatiga mos keladi. Chunki, har bir shaxs qonuniy joriy qilingan solliqlarni to'lashi shart. O'zbekiston Respublikasi hududida hech kimning zimmasiga qonuniy belgilanmagan to'lovlarni to'lash majburiyati yuklanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Solliq kodeksining 7-moddasida solliq solishning aniqligi printsipigacha quyidagicha sharh berilgan: Solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Solliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir solliq

¹³ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида тузилган

to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda, soliq to'lovchilar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerak.¹⁴ 9-chizmaga qarang.

Soliq solishning adolatliligi printsipti. Belgilangan soliqlar barcha toifadagi shaxslar uchun umumiy hisoblanadi. Shuningdek, soliqlar bo'yicha individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Soliq to'lovlar bo'yicha imtiyozlar ijtimoiy adolat printsiplariga asosan beriladi. Soliq to'lovlarini belgilashda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlarga asoslanmadi.

Soliq tizimining yagonaligi printsipti. Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona soliq tizimi mavjud. Belgilangan soliqlar barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona soliq majburiyati yuzaga keltiradi. Soliqlar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishiga to'sqinlik qilmadi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi printsiptining mazmuni shundan iboratki, soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilingandan keyin amalga joriy qilingan, deb qabul qilinadi.

Soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi printsipti. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi echilmagan noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i munosabatlarida soliq to'lovchi hamda vakolatli davlat idoralari ularga berilgan qonuniy huquq va yuklangan majburiyat asosida huquqiy munosabatlarga kirishadilar. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 32- moddasida soliq to'lovchilarning majburiyatlari sifatida

¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 52 (i)-сон

quyidagilar belgilangan:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;
- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlarlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;
- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning mansabdor shaxslarini qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi.

Soliq agentlariga qo'shimcha ravishda quyidagilar soliq ajburiyati sifatida yuklanadi:

- soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga o'tkazishi;
- soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga o'tkazilgan soliq to'lovlarning hisobini yuritishi.

Bundan tashqari, soliq to'lovchining zimmasiga soliq majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liqligicha bajarish talab qilinadi. Soliq majburiyatlarining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 34- moddasida quyidagicha keltirilgan:

- soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;
- moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari vakolatli idoralar bilan soliq

munosabatlariga kirishish jarayonida quyidagi huquqlarga asoslanadi:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

- soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

- belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

- soliq majburiyatlarini bajarishda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

- soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga tushuntirishlar berish;

- davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining noqonuniy talablarini bajarmaslik;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli etkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'ini undirish jarayonida soliq to'lovchi va vakolatli davlat organlari o'rtasida soliq munosabatlari yuzaga

keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini huquqiy asosini, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil qiladi.

O'zbekiston respublikasi soliq kodeksi soliq to'lovchilar va vakolatli davlat idoralar o'rtasida yuzaga keluvchi soliq munosabatlarini tartibga soladi. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.


Soliq kodeksida qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning mexanizmi yaratilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i huquqiy asosini tashkil qiluvchi barcha me'yoriy hujjatlar soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsiplariga mos kelishi zarur.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI (Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani misolida)

2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hamda soliq solish ob'ektlarini o'ziga xos xususiyatlari

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari amaldagi soliq qonunchiligiga asosan to'rt toifaga ajratiladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illangan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarni, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari, respublika hududiga import qiluvchi importerlarda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatlari yuzaga kelishi mumkin. 10-chizmaga qarang.



10-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari¹⁵

Aytish joizki, barcha yuridik shaxslar ham qo'shilgan solig'i to'lovchilari hisoblanmadi. Masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanmaydigan notijorat tashkilotlar, yagona soliq to'lovini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar qo'ilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanmaydilar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hududiga, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar ham soliq to'lovchi bo'lmadi.

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида тузилган



11-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti¹⁶

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ektini tadbirkorlik sub'ektlarning tovarlarni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish oborotlari hamda respublika hududiga qilingan import oboroti bilan belgilanadi. Tovar, ish va xizmatlar realizatsiya qilish ob'orti keng ma'noni bildiradi. Unda nafaqat tovarlarni xaridorga sotish, balkim tovarlar, ishlarni va xizmatlarni boshqa yuridik shaxslarga bepul berish, xodimlarga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga berish, qarz beruvchiga garov bilan ta'minlangan majburiyatlar hisobiga garov narsasini berish va boshqa tardagi berishlar ham soliq solish oboroti tarkibiga kiradi. 11-chizmaga qarang.

Bundan tashqari, soliq solish oboroti tarkibiga tovarni va boshqa mol-mulkni quyidagi tartibda jo'natishlar ham kiritiladi:

- ustav fondiga qo'shilgan hissa;
- boshqa tovarlarga almashtirish uchun mol-mulkni berish;
- muassisga dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish;
- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan mustaqil soliq to'lovchilar bo'lgan boshqa tarkibiy bo'linmasiga mol-mulkni berish;
- mol-mulkni moliya ijarasiga berish;

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида тузилган

- to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;
- mol-mulkni operativ ijaraga berish;
- intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlari chegirilmaydigan, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish.

Soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyatida soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydigan operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin. Bunday operatsiyalarning mavjud bo'lishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyati yuzaga keltirmaydi. Soliq majburiyati yuzaga keltirmaydigan realizatsiya qilish oborotiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- korxonaning xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmagan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;

- korxonaning o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish-montaj ishlarining qiymati;

- qaytariladigan tara qiymati;

- yuridik shaxsning tugatilishi munosabati bilan muassislartarga, sheriklarga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish;

- asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish ob'ektlarini bepul asosda berish;

- banklar va sug'urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o'z filiallariga berish;

- oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning ulushi sifatida tovarlarni va

boshqa mol-mulk berish;

- mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish va aksincha ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga qaytarish;

- ob'ekt qiymatini ijaraga beruvchi oladigan ijara to'lovining bir qismi tarzida qoplash;

- kafolatli muddati davrida tovarlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 200- moddasida qo'shilgan qiymat solig'i soninadigan va solinmaydigan oborotlarni belgilash qoidalari bayon qilingan. Realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi hududi bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari, soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti, soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar, soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i solish oboroti deb tan olinmaydi.

Yuqorida taakidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.

Ish va xizmatlar importi bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i solishning obortini aniqlashda ularni realizatsiya qilish joyini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 202-moddasiga asosan, quyidagi shartlardan biri mavjud bo'lsa, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan deb tan olinadi:

- xizmatlar haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududida turizm, madaniyat, san'at, ta'lim, jismoniy tarbiya va sport sohasida ko'rsatilayotgan bo'lsa;

- tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa;

-jo'natish yoki tashish boshlangan paytda tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

- ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lsa;

-ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ko'char mulk bilan bog'liq bo'lsa;

-ishlarni, xizmatlarni sotib oluvchi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan bo'lsa. Xaridor bo'lgan yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasi hududida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi, ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan joyda xizmat sotib olinganligi asos sifatida qabul qilinadi.

Ishlarni, xizmatlarni sotib oluvchi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan deb tan olish uchun quyidagi belgilar bo'lishi zarur:

-xodimlar berish agar xodimlar sotib oluvchi o'z faoliyatini amalga oshirayotgan joyda ishlayotgan bo'lsa;

-advokatlik, buxgalterlik, reklama, maslahat berish, auditorlik, injiniring xizmatlari, shuningdek axborotga ishlov berish xizmatlari ko'rsatilganda;

-intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquq o'tkazilgan yoki ulardan foydalanish huquqi berilganda;

-ko'char mulk ijaraga berilganda.

Bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlar yordamchi xarakterga ega bo'lsa, asosiy ishlar, xizmatlar realizatsiya qilingan joy yordamchi ish va xizmatlar uchun realizatsiya qilish joyi sifatida e'tirof etiladi.

Realizatsiya qilingan tovarlar, ish va xizmatlarni amalga oshirilgan sanasiga qarab soliq solish ob'ekti tarkibiga kiritiladi. Amaldagi soliq qonunchiligida turli-xil realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanalari belgilangan.

Mahsulot va tovarlar uchun realizatsiya qilish oboroti sanasi sifatida ularni jo'natilgan kun qabul qilinadi. Tovarlar jo'natilmay, tovarga bo'lgan mulk huquqi xaridorga o'tgan hollarda, mulk huquqi o'zgargan sana - realizatsiya qilish oboroti sanasi sifatida qabul qilinadi.

Garovga qo'yilgan mol-mulkning garovga qo'yuvchi tomonidan garov predmetini qarz hisobiga topshirilganda, mulk huquqi o'tkazilgan sana - realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana deb e'tirof etiladi.

Korxonaning xodimlariga shaxsiy ehtiyojlari uchun ish haqi hisobiga, shu jumladan bepul tovarlar berilganda, ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda tovar berilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan hamda hisobvaraqa-faktura va (yoki) ishlar bajarilgani, xizmatlar ko'rsatilgani faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgan kun oborot amalga oshirilgan sanadir.

Ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanani belgilash bo'yicha alohida shartlar mavjud. Quyida kursatilgan shartlar asosida realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanasi belgilanadi:

- ishlar, xizmatlar uzluksiz asosda realizatsiya qilingan holatlarda, hisobvaraqa-faktura yozilgan sana;

- hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirilganda;

- ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda.

- ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olingan hollarda, ishlar, xizmatlar olinganligi to'g'risidagi hujjat rasmiylashtirilgan sana.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ektini tovarlarni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish oborotlari hamda respublika hududiga qilingan import oboroti bilan belgilanadi.

Realizatsiya qilish oboroti tovarlarni xaridorga sotishdan tashqari, tovarlar, ishlarni va xizmatlarni boshqa yuridik shaxslarga bepul berish, xodimlarga ish haqi hisobiga yoki muassisa dividendlar to'lash hisobiga berish, qarz beruvchiga garov bilan ta'minlangan majburiyatlar hisobiga garov narsasini berish holatlarini ham o'z ichiga oladi.

Soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydigan operatsiyalar amalga oshirilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyati yuzaga keltirmaydi.

Importdan olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti sifatida soliq solinadigan import e'tirof etiladi.

2.2. Qo'shilgan qiymat solig'inining soliq solish bazasini aniqlash tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solinadigan bazasi realizatsiya qilinayotgan tovarlarning ishlarning, xizmatlarning qiymati asosida aniqlanadi. Soliq solish bazasi sifatida belgilangan tovarlarning realizatsiya qilish qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i summasini kiritmaydi.

Ayrim hollarda, tovarlar o'zlarining ishlab chiqarish tannarxidan yoki tovarlarni sotib olish bahodan past narxlarda realizatsiya qilinishi mumkin. Bunga misol qilib quyidagi holatlarni keltirishimiz mumkin:

- tovarlar korxonaning o'z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish tannarxidan past bahoda yoki tekinga berilishi;

- bozorni egallash maqsadida, tovarlar ishlab chiqarish tannarxidan past bo'lgan bahoda sotilishi;

- boshqa sabablarga ko'ra tovarlar o'zga shaxslarga tekinga- yordam tariqasida berilishi mumkin.

Tovarning tannarxdan past bo'lgan bahoda yoki tekinga berilgan holatlarda, soliq solish bazasiga berilgan tovarlarning tannarxi, sotib olingan tovarlarining xarid qiymati soliq solish bazasiga kiritiladi.

Qayta ishlashga berilgan tovarlardan qo'shilgan qiymat solig'i hisoblashda, soliq solish bazasi quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida;

- aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, ta'mirlash-qurilish, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar xizmatlar bo'yicha soliq solish bazasini aniqlashda ularning shartnomaviy narxlaridan kelib chiqiladi. Bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan baza uchun qabul qilinadi. Qurilish ishlari buyurtmachining materiallar bilan ta'minlana bo'lsa, materiallarga bo'lgan mulk huquqi kimda bo'lganligiga qarab soliq solish bazasi o'zgaradi. Agar material bilan taminlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa va ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan hollarda, soliq solish bazasiga buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holda hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Aytish joizki, soliq solinadigan baza tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishiga ruhsat berilmaydi. Import qilingan tovarlar uchun belgilanuvchi soliq solish bazasi summasiga aktsiz solig'ining summasi kiritiladi.

Korxonaga tegishli bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar o'zoq muddatga xizmat qiluvchi aktivlar hisoblanadi. Xizmat muddati davomida ularning qiymati ammortizatsiya qilinadi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiyasi bo'yicha soliq solinadigan baza, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi. Soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solish bazasini aniqlashning quyida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladi;
- chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq soliq solish bazasi sifatida qabul qilinadi;

- soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan baza sifatida qabul qilinadi;

- chiqib ketayotgan, o'zi ishlab chiqargan tovarlar qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi. Bunda, moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa miqdorida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ekt realizatsiyasi bo'yicha soliq solish bazasini aniqlashning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladi;
- soliq solish bazasi qurilishi tugallanmagan ob'ektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiyasi bo'yicha soliq solinadigan baza quyidagicha aniqlanadi:

- soliq solish bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladi;
- soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi bilan olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Ayrim tovarlar, xizmatlar va ishlarning baholari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasining soliq solinadigan bazasi davlat tomonidan tasdiqlangan baholardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolari uchun, soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonementlar, yo'llanmalar va xizmatlar olishga huquq beruvchi boshqa hujjatlar realizatsiya qilingan holatlarda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, uni chiqib ketish qiymati bilan balans

qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar realizatsiyasi bo'yicha soliq solish bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga olgan holda, olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachi tashkilotlar boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab vositachilik xizmatlari ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlarda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga olgan holda, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi. Komitent O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan hollarda, soliq solinadigan baza ichiga qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmay aniqlanadi. Bunda soliq solinadigan baza tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan kam bo'lmasligi zarur.

Garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirganda soliq solish bazasi quyidagicha aniqlanadi:

- soliq solinadigan baza garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqiladi;

- soliq solish bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar bo'yicha soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladi, soliq solish bazasi esa ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2-jadval

2014 yilda “Yashnar” MChJ ning yalpi tushumi tarkibi¹⁷

Ko'rsatkichlar	2014 yil, mln.so'mda	Tarkibi,%da
----------------	-------------------------	-------------

¹⁷ Қорақалпоғистон Республикаси Тўрткўл тумани ДСИдан олинган маълумотлар асосида тузилган.

Tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, jami	24 576,3	100,00
ulardan:		
soliq solinadigan bazaga kiritilgan aktsiz solig'i summasi		
tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilishdan sof tushum	24 576,3	100,00
shu jumladan:		
QQSdan ozod qilinadiganlari	2 643,2	10,76
nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan	14 852,6	60,43
boshqa soliq solinadigan realizatsiya	7 080, 5	28,81

2014 yilda “Yashnar” MChJ jami bo'lib 24576.3 mln.so'mlik Tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlariga ega bo'lgan. Shundan 60.43% nol darajali qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan oborotga to'g'ri kelgan. Jami sof tushumning 10.76% bo'yicha firma soliq imtiyoziga ega bo'lgan.2-jadvalga qarang.

Yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida belgilanadi. Soliq solish bazasi miqdorini belgilashda qo'shilgan qiymat solig'i va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq miqdorlari kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 205-moddasida soliq to'lovchining qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgarganda;

- narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.¹⁸

Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- tovarlarning bojxona qiymati;
- O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i summasi;
- bojxona bojlarining summalari.


Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish bazasi berilgan soliq imtiyozlari miqdoriga kamaytiriladi.¹²-chizmaga qarang.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 4 toifadagi soliq imtiyozlari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti;
- soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar;
- soliqlardan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari;
- soliqlardan ozod qilinadigan import.

Vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar, bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar, aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari va shu kabi boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar qo'shilgan qiyat solig'idan ozod etilgan.

¹⁸Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 52 (i)-сон



12-chizma. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash jarayoni¹⁹

Bank muassalarining hamda sug'urta tashkilotlarining asosiy faoliyati bilan bog'liq opreatsiyalari ham qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

Tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar, diplomatik vakolatxonalari rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar, dori vositalari va tibbiyot uchun mo'ljallangan buyumlar, texnologik asbob-uskunalar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa import turlari ozod qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solinadigan bazasi

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида тузилган

realizatsiya qilinayotgan tovarlarning ishlarning, xizmatlarning qiymati asosida aniqlanadi. Soliq solish bazasi sifatida belgilangan tovarlarning realizatsiya qilish qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i summasini kiritmaydi.

Tovarlar o'zlarining ishlab chiqarish tannarxidan yoki tovarlarni sotib olish bahosidan past narxlarda realizatsiya qilinganda ularning tannarxi yoki xarid qilib olingan qiymati soliq solish bazasi sifatida qabul qilinadi.

Import qilingan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza tovarlarning bojxona qiymati, import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i summasi hamda bojxona bojlarining summolari yig'indisidan shakllanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 4 toifadagi soliq imtiyozlari mavjud: soliqlardan ozod etiladigan tovarlarni realizatsiya qilish oboroti; soliqlardan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar; soliqlardan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari; soliqlardan ozod qilinadigan import.

Soliq imtiyozlari qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish bazasini kamayishiga olib keladi.

2.3. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import bo'yicha alohida hisoblanadi. Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavka asosida aniqlanadi. Import o'preatsiyasi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi ham soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bugungi kunda, qo'shilgan qiymat solig'i 20% da va 0% da soliqqa tortiladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotlariga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni eksport qilish;
- chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga

(ishlarga, xizmatlarga) soliq solish;

-«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga soliq solish;

- xalqaro yo'nalishda tashishlarga soliq solish;

- aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlarga soliq solish.

Soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi va hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farqi davlat byudjetiga to'lanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishda korxona tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat summasining ayrim toifalari byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashda hisobga olinadi, ayrimlari esa olinmaydi.

Korxonalar soliq solinmaydigan oborot uchun foydalaniladigan tovarlar bo'yicha mahsulot etkazib beruvchilarga va import bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi. Bunday oborotga taaluqli bo'lgan, ilgari to'lagan qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning qiymatida hisobga olinadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning ikki usuli mavjud. Soliq to'lovchining tanloviga binoan alohida-alohida yoki mutanosib usulda aniqlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli soliq to'lovchining hisob siyosatida o'z aksini topadi va kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usuli bilan hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashda, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib belgilanadi.

Hisobga olinadigan summani aniqlashning alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalari bo'yicha alohida-alohida

hisob yuritadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining summasini hisobga olish huquqiga ega bo'lish uchun ayrim shartlar bajarilishi talab qilinadi.3-jadvalga qarang.

Tassischi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan hollarda, mol-mulk ustav fondiga qo'yilma sifatida olinganda oluvchi etkazib beruvchi tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishi mumkin.

3-jadval

**Qo'shilgan qiymat solig'ining summasini hisobga olish uchun bajarilishi
lozim bo'lgan shartlar²⁰**

t/r	Qo'shilgan qiymat solig'ining summasini hisobga olish uchun bajarilishi lozim bo'lgan shartlar
1	tovarlarni oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lsa
2	tovarlardan soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadida foydalanilsa
3	olingan tovarlarga etkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvaraq-faktura yoki taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa
4	tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa. Agar import qilingan tovarlar bo'yicha soliqni byudjetga to'lashdan ozod etish tarzida bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan imtiyoz berilgan bo'lsa ham qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi
5	Norezident uchun qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa
6	nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma mavjud bo'lsa.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish oboroti maqsadida foydalaniladiganda ham to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi. Ammo, haqiqatda olingan tovarlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i eksportidan bank hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi. Amaliyotda eksportga sotilgan tovarlar uchun valyuta mablag'i vositachilarning bank hisob varag'iga kelib tushishi mumkin. Bunday hollarda, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining hisobvarag'iga

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида тайёрланган.

kelib tushgan valyuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

Kafolatli muddati davrida sotilgan tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda moddiy resurslar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi. Albatta, moddiy resurslarni sotgan shaxs qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lishi lozim.

Komitent, topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lsa, import qilishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobot davrida realizatsiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Soliq to'lovchi hisobot davrida umumbelgilangan soliqlarni to'lashga yoki qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tishi mumkin. Bunday hollarda, yuridik shaxs umumbelgilangan soliqlarni to'lashga yoki qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tilgan paytdan e'tiboran tovarlarning qoldiqlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar bekor qilinganda, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan vaqtdan soliq to'lovchida hisobga olish huquqi paydo bo'ladi.

Bir vaqtda, soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo'lganda, soliq solinadigan oborotga, shu jumladan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek yuridik shaxsning o'z ehtiyojlari uchun, xarajatlar sifatida qaraladigan oborotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 219-moddaasida hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summolari bayon qilingan. Ularga quyidagilar kiradi:

- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovarlar bo'yicha;

- olinayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan

ob'ektlar bo'yicha, shuningdek moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berish uchun olinayotgan mol-mulk bo'yicha;

-O'zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan tovarlar bo'yicha;

-tekinga olingan tovarlar bo'yicha;

-chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida olingan mol-mulk bo'yicha²¹.

Ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summolari ayrim holatlarda hisobga olishdan chiqarib tashlanadi. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi:

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tganda ilgari hisobga olingan tovar-moddiy zaxiralar, shuningdek tayyor mahsulot qoldiqlari bo'yicha;

-qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar ishlab chiqarish uchun foydalanilayotgan tovarlar bo'yicha;

-vakolatli organ, shuningdek soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalardan ortiqcha moddiy resurslar bo'yicha yo'qotishlar bo'yicha;

-qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyoz berilganligi munosabati bilan soliq solinmaydigan oborotlar yuzaga kelgan hollarda.

Kalendar yil qo'shilgan qiymat solig'i uchun soliq davri, hisobot davri esa quyidagicha aniqlanadi:

-qo'shilgan qiymat solig'i to'laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Hisobot davri uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari o'zlarining soliq majburiyatlari bo'yicha hisobot topshiradilar. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisob-kitobi hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan topshiradilar. Soliq hisob-kitoblarini topshirish muddati korxonaning mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirishi yoki

²¹ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси асосида тайёрланган.

kirmasligiga qarab o'zgaradi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar hisoblanmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan oyma-oy - har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar esa soliq hisob-kitoblarini yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda topshiradilar.

Soliq hisob-kitoblariga soliq davri mobaynida olingan tovarlar hamda realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha hisobvaraqa-fakturalar reestrini ilova qiladi.

Hisobvaraqa-faktura qat'iy hisobot hujjati hisoblanadi. Unda quyidagi ma'lumotlar yoritilishitalab qilinadi:

- hisobvaraqa-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;
- hisobvaraqa-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi;
- soliq to'lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan eri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;
- realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'lchov birliklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa);
- o'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvaraqa-faktura bo'yicha soni (hajmi);
- shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif);
- realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati;
- aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'ining stavkasi va summasi;

- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasi;

-transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkasi va summasi;

-realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobga olingan qiymati.²²

hisobvara-q-faktura quyidagi hollarda taqdim etilmaydi:

- yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylashtirish;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitantsiya berish;

-tovarlarning eksport-import tarzida etkazib berilishini rasmiylashtirish;

- qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha mol-mulkni topshirish;

- bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma berish orqali rasmiylashtirish;

- sug'urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va (yoki) sug'urta polisi orqali rasmiylashtirish.

2013 yilda firma tomonidan 1061.46 mln.so'm qo'shilgan qiymat solig'i hisoblangan. Ammo, mazkur hisobot davrida sotib olingan tovarlarga to'g'ri keluvchi, hisobga olinadigan, to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ham mavjud bo'lgan. Uning summasi 203.45 mln.so'mni tashkil qilgan. Shu sababli, 2013 yilda byudjetga 858.01 mln.so'm qo'shilgan qiymat solig'i to'langan. 2014 yilda firmaning jami hisoblagan qo'shilgan qiymat solig'i summasi 1416 mln.so'mni tashkil qilgan. Hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasi

²² Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 52 (i)-сон

269.90mln.so'mni tashkil qilgani uchun, byudjetga faqat 1146mln.so'm qo'shilgan qiymat solig'i to'langan. 4-jadvalga qarang.

4-jadval

**“Yashnar” MChJ tomonidan 2013-2014 yillarda hisoblangan hamda
byudjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi²³**

Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	Farqi	O'sish sur'ati,%da
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi,mln.so'mda	203,45	269,90	66,45	132,66
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi, mln.so'mda	0	0,00	0,00	0,00
Hisobga olinadigan jami QQS summasi, mln.so'mda	203,45	269,90	66,45	132,66
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi,mln.so'mda	1061,46	1 416	354,65	133,41
Byudjetga to'lanishi (kamaytirilishi) lozim bo'lgan QQS summasi,mln.so'mda	858,01	1 146	288,20	133,59

Tovarni realizatsiya qiluvchi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmasligi, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda, soliq to'lovchilar hisobvaraqq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan shtamp bosadi (yozib qo'yadi).

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 226-moddasida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi quyidagicha belgilangan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - qo'shilgan qiymat solig'i

²³Қорақалпоғистон Республикаси Тўрткўл тумани ДСИдан олинган маълумотлар асосида тузилган.

hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxona va tashkilotlar tomonidan -har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavka asosida aniqlanadi.

Bugungi kunda, qo'shilgan qiymat solig'i 20% da va 0% da soliqqa tortiladi.

Davlat byudjetiga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i va ilgari to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat soliqlari o'rtasidagi farq to'lanadi.

Tovarlarni sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i keyinchalik mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilsa, qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lanadigan qismini aniqlashda hisobga olinadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq hisob-kitoblarini har-chorakda taqdim qilishadilar. Soliq to'lovlarini ham har chorakda amalga oshiradilar.

Mikrofirma va kichik korxona toifasiga kirmagan korxonalar soliq hisobotlarini oyma-oy taqdim qilishadilar. Soliq to'lovlarini ham har oyda amalga oshiradilar.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Xorij mamlakatlarining soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i va uni undirish amaliyoti

Aksariyat xorij davlatlarida qo'shilgan qiymat solig'i o'rniga iste'mol solig'i undiriladi. Bunga misol qilib, Yaponiyani, AQSh davlatlarini keltirish mumkin. Evropa davlatlarining soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i mavjud bo'lib,

davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada iste'mol solig'i 1988 yilda o'tkazilgan iqtisodiy reforma asosida qabul qilingan. 1989 yilning birinchi apreldan amaliyotga joriy qilingan. Iste'mol solig'ini soliq tizimiga joriy qilish AQShlik doktor Shorning tavsiyasi asosida amalga oshirilgan.

Yaponiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda egri soliqlarga nisbatan to'g'ri soliqlar ko'proq mavqeyga ega.

Iste'mol solig'i barcha tovarlar va xizmatlardan, har-bir operatsiya jarayonidan undiriladi. Uning summasi tovarlar va xizmatlar bahosiga qo'shib, navbatdagi xaridorga o'tkaziladi. Shunday qilib, dastlab tovarni ishlab chiqaruvchi iste'mol solig'ini tovar bahosiga qo'shib, ulgurji savdo tashkilotiga o'tkazadai. Ulgurji savdo tashkiloti ham, o'z navbatida iste'mol solig'ini qo'shib, chakana savdo tashkilotiga o'tkazadai. Chakana savdo tashkiloti tegishli bo'lgan iste'mol solig'ini tovar bahosiga qo'shib. Oxirgi iste'molchidan undiriladi.

Iste'mol solig'ini hisoblab, to'lashda qatnashuvchi sub'ektlar tovarni sotib olishda to'langan soliq summasini chegrib, hisoblangan va hisobga olinuvchi iste'mol solig'i o'rtasidagi farni byudjetga o'tkazadi. Shunday qilib, har-qanday holatda iste'mol solig'ining yuki oxirgi iste'molchiga tushadi.

Biznes bilan bog'liq bo'lmagan, Yaponiya hududidan tashqariga yuboriluvchi aktivlar iste'mol solig'iga tortilmaydi.

Yaponiya hududidan tashqarida ko'rsatilgan xizmatlar ham iste'mol solig'ining soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi.

Xususiy firmalar va korporatsiyalar iste'mol solig'ining asosiy soliq to'lovchilari hisoblanishadilar.

Davlat va mahalliy idoralar, davlat korporatsiyalari, assotsiatsiyalar, Yaponiya no rezidentlari, chet el korporatsiyalari ham. agar soliqqa tortiladigan o'preatsiya amalga oshirsalar, soliq to'lovchiga aylanishadilar.

Yaponiyada kichik va o'rta biznes sub'ektlarini rivojlantirish maqsadida, iste'mol solig'ini to'lashda ularga soliq imtiyozlari berilgan. Soliq davrida kichik

va o'rta biznes sub'ektlarining soliqqa tortiladigan savdo tushumi 30 mln. yoki undan kam Yenni tashkil qilsa, ular iste'mol solig'idan ozod qilinadi. Agar ularning soliqqa tortiladigan oboroti 30 mln.yendan oshsa, ular iste'mol solig'ining to'lovchilariga aylanishadilar.

Soliqqa tortiluvchi operatsiyalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tadbirkorlik mulkini sotish;
- tovarlar, xizmatlar va ishlarni realizatsiyasi;
- va boshqa operatsiyalar.

Soliqqa tortilmaydigan operatsiyalarga erni va uyni lizinga berish, qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilish.

Yaponiya davlati mamlakat eksportini rovjlantirish maqsadida eksport opreatsiyalarini iste'mol solig'iga tortishdan ozod qilgan. Xususan, eksport, xalqaro telekommunikatsiyalar, xalqaro transport xizmatilaridan iste'mol solig'i undirilmaydi.

Ichki operatsiyalar bo'yicha quyidagi soliq imtiyozlari mavjud:

- erni lizinga berish;
- qimmatli qog'ozlar reazizatsiyasi;
- to'lov vositalari bilan amalga oshiriluvchi operatsiyalar;
- kredit foyizlari;
- depozit foyizlari;
- pochta markalarini realizatsiya qilish;
- cheklar va sretifikatlar realizatsiyasi;
- amaldagi qonunlar bo'yicha, hukumat idoralari tomonidan undiriluvchi bojlar, shtraflar va boshqa to'lovlar;
- hamshira xizmati va tibbiy muajalalar;
- oliy o'quv yurtlari uchun to'lanadigan kontraxt summalari;
- farzand tug'ilgani uchun to'lanuvchi summalar;
- dafn marosimlari bilan bog'liq to'lovlar;
- maktab o'quv vositalari uchun to'lovlar.

Iste'mol solig'ining summasi quyidagi usulda hisoblanadi.

Soliq solish bazasi $\times 4\%$ - hisobga olinadigan iste'mol solig'i summasining soliq solish bazasi $\times 4\%$.

Soliq to'lovchi hisoblangan korxonalar tuman soliq idoralariga soliq hisobotlarini topshirishadilar. Soliq hisobotlari topshirilgandan keyin ikki oy muddatida deklaratsiya qilingan iste'mol solig'i summasi davlat byudetiga to'lanadi. O'zgan soliq yilida yillik iste'mol solig'i summasi to'rt million sumdan oshadigan korxonalar esa oylik iste'mol solig'ining hisob-kitobini topshirishadilar va $\frac{1}{4}$ qimini to'laydilar.

Oldingi soliq yilida yillik iste'mol solig'ining summasi 480000 yendan 4 million yengacha bo'lgan korxonalar soliq hisob-kitoblarini ikki marta topshirib, soliqlarni $\frac{1}{2}$ qismini to'laydilar.

Iste'mol solig'i to'loviga dastlabki marta o'tuvchi soliq to'lovilarga iste'mol solig'ining summasini yiliga bir marta to'lashga ruhsat beriladi.

Oldingi soliq yilida yillik iste'mol solig'ining summasi 480000 yengacha bo'lgan korxonalar soliq hisob-kitoblarini taqdim qilishmadilar.

Tovar moddiy zaxiralarni sotib olishda to'langan iste'mol solig'i summasi hisoblangan soliq summasidan oshib ketsa, yil yakuni bo'yicha topshirilgan soliq hisoboti asosida, soliq to'lovchiga ortiqcha to'langan summa qaytariladi. Bunday holatda. Soliq to'lovchi soliq hisobotiga ortiqcha to'langan iste'mol solig'i summasini qaytarish to'g'risidagi arizasini ilova qilishi zarur.

Hisobga olinuvchi iste'mol solig'i miqdorini ikki usulda hisoblaydilar. Birinchi usul –aniqlashtirilgan usul deb nomlanib, hisobga olinuvchi, ilgani to'langan iste'mol solig'i summasi soliqqa tortiladigan hamda soliqqa tortilmaydigan toifalarga ajratiladi.

Ulushli usulning mohiyati shundan iboratki, soliqqa tortiluvchi oborot ulshi aniqlanib, hisobga olinuvchi, ilgari to'langan barcha iste'mol solig'i summasiga ko'paytiriladi.

Soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim qilmadigan yirik

korxonalar uchun maxsus dastur ishlab chiqiladi. Ularni doimiy soliq hisobotlarini topshirishi ustidan nazorat qilinadi.

Yaponiyada iste'mol solig'i federal byudjetga hada mahalliy byudjetga to'lanadi.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'ini undirish borasida xorij amaliyotidan respublikamiz soliq tizimini rivojlantirishda foydalanish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Yaponiya soliq tizimida mavjud bo'lgan iste'mol solig'i mohiyatan qo'shilgan qiymat solig'iga o'xshaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida undiriluvchi qo'shilgan qiymat solig'ining mexanizmi xorij davlatlarda undiriluvchi qo'shilgan qiymat solig'ining mexanizmiga deyarli mos keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish borasidagi xorij amaliyotidan foydalanishda respublikamiz shart-sharoitini inobatga olish zarur.

3.2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini rivojlantirish

Respublikamiz soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i respublikamiz mustaqilligini dastlabki yillaridan amalga joriy qilingan. Bugungi kunga qadar mazkur soliq turini undirish mexanizmi doimiy takomillashtirib kelinmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish borasida chet mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamizda undiriluvchi qo'shilgan qiymat solig'ini undirish mexanizmi asosan xalqaro talablarga javob beradi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash jarayonlarida echilishi lozim bo'lgan muammoalar mavjud. Bu muammolar respublikamiz milliy iqtisodiyotining rivojlanib borishi hamda soliq tizimi ham davr talabiga mos takomillashtirilish zarurati bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda, qo'shilgan qiymat solig'ini soliq solish ob'ektini haqqoniy

hisobini yuritish borasida talaygina muammoalar mavjud. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi hisoblangan ko'plab korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatish bilan shug'illanishadilar. Shulardan ayrimlari aholidan ko'rsatilgan xizmat uchun olgan to'lovlar miqdorini noma'lum sabablarga ko'ra kamaytirib hisobga olishadilar. Qurilish tashkilotlari va buyurtmachilar o'rtasida bajariladigan ishlarning bozor bahosi emas, kelishilgan narxlarni qo'llashga harakat qilishadilar. Oqibatda, davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kamayadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilovsita soliqligi va u oxirgi iste'molchidan undirilishini bilamiz. Ammo, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari oxirgi iste'molchiga xizmat qiluvchi asosiy tashkilotlardan biridir. Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yagona soliq to'lovi to'lovchilari hisoblanishadilar. Ularga umumiy belgilangan soliqlarni to'lash tizimiga o'tish ruhsat berilmaydi.

Jahonning rivojlangan davlatlarida savdo korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini, iste'mol solig'ini to'lashadilar.

Yuqoridagilarga asoslanib, respublikamizda faoliyat yurituvchi savdo korxonalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini joriy qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 205-moddasida soliq to'lovchining qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda, deb belgilangan.

Nazarimizda, soliq solinadigan bazaga o'zgartirishlar kiritish holatlarining to'rtinchi banadi "narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda" qismi soliq amaliyotiga to'g'ri kelmaydi. Chunki, sotuvchi va

xaridor oldin tovar bahosini kelishadi, zarur bo'lgan skidkalarni beradi, keyin sotilgan tovar uchun hisobvara-q-faktura rasmiylashtiriladi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 205 moddasi, 3 qismini quyidagicha qayta tahrir qilish taklif qilinadi: "tovarlar narxi o'zgarganda".

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 208-moddasida("Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti"), 15 bandi 3-qismida quyidagi mazmunda soliq imtiyozi berilgan: "turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko'rsatish uchun yo'llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko'rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi". Nazarimizda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan ushbu soliq imtiyozi maqsadga muvofiq emas. Chunki, turistik-ekskursiya xizmatlaridan aholining boy taminlangan qismi foydalanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan ushbu imtiyozni olib tashlanishi soliqning qaytataqsimlash funktsiyasining samarasi yanada oshgan bo'ladi.

Bugungi kunda, Hukumatimiz tomonidan respublikada kichik biznesni rivojlantirish borasida ko'plab ishlar qilinmoqda. Kichik biznesni rivojlanishi uchun bir-qator soliq imtiyozlari berilgan. Tadbirkorlar respublikada ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun ularga texnologik liniyalar, uskunalar zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 208 moddasi kodeksining 208-moddasida("Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti"), 34 bandida investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinganligi bayon qilingan. Bundan tashqari 211 – modda, 7 banda: O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan

ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarni etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi belgilangan. . Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi, deb belgilangan.

Ammo, kichik biznes sub'ektlari o'zlari ixtiyoriy ravishda chet mamlakatlar bilan shartoma tuzib, o'zlariga kerakli bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyalarini, uskunalarni respublikaga olib kelishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 208-moddasiga("Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti") quyidagi mazmundagi qo'shimcha qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: " kichik biznesni tashkil qilish maqsadida, tadbirkorlar tomonidan chetdan olib kiritiluvchi ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi".

Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

1. aholiga naqd pulga xizmat kursatuvchi, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi korxonalar tomonidan xizmat haqini to'liqligicha hisobga olinishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 205 moddasi, 3 qismini quyidagicha qayta tahrir qilish taklif qilinadi: "tovarlar narxi o'zgarganda".

3. qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan ushbu soliq imtiyozining maqsadga muvofiq emasligi sababli, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 208-moddasida("Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti"), 15 bandi 3-qismida belgilangan soliq imtiyozini: "turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko'rsatish uchun yo'llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari

turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko'rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi"ni bekor qilish.

4. O'zbekiston respublikasi Soliq kodeksi 211 – moddasiga quyidagi mazmunda qo'shimcha qilish: “ kichik biznesni tashkil qilish maqsadida, tadbirkorlar tomonidan chetdan olib kiritiluvchi ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi”.

XULOSA

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1.Qiymat, baho, narx, narxni shakllanishi, moddiy va mehnat xarajatlari, korxonaning foydasi qo'shilgan qiymatning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi.

2.Qo'shilgan qiymat- bu mahsulot, tovar, ish va xizmatlar qiymatining bir qismi bo'lib, u ishlab chiqarish, ulgurji, chakana savdo va vositachi korxonalarda yaratiladi.

3.Mahsulotning bozor bahosi bilan uni ishlab chiqarish uchun sarflangan material xarajatlar o'rtasidagi farqni qo'shilgan qiymat deb e'tirof etish mumkin.

4.Yanada aniqroq xulosa qilganda, qo'shilgan qiymat mehnat vositasini va korxona foydasini o'z ichiga oladi.

5.Qo'shilgan qiymat solig'i egri soliq bo'lib, respublikamiz iqtisodiyotini tartibga solishda, davlat byudjeti daromad qismini shakllantirishda muhim ahmiyat kasb etadi.

6.Qo'shilgan qiymat solig'i boshqa soliq turlariga nisbatan yangi soliq bo'lib, dastlab u Frantsiyada amalga joriy qilingan.

7.Yaponiya va AQSh soliq tizimida mavjud bo'lgan, iste'mol solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga mohiyatan o'xshaydi.

8.Qo'shilgan qiymat solig'i ham boshqa soliq turlari kabi bir-xil funktsiyalarni bajaradi va yagona tamoyillarga ega.

9.Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish jarayonida soliq to'lovchi va vakolatli davlat organlari o'rtasida soliq munosabatlari yuzaga keladi.

10.Qo'shilgan qiymat solig'ini huquqiy asosini, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil qiladi.

11.O'zbekiston respublikasi Soliq kodeksi soliq to'lovchilar va vakolatli davlat idoralar o'rtasida yuzaga keluvchi soliq munosabatlarini tartibga soladi. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

12.Soliq kodeksi asosida qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning mexanizmi yaratilgan.

13.Qo'shilgan qiymat solig'i huquqiy asosini tashkil qiluvchi barcha me'yoriy hujjatlar soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi printsiplariga mos kelishi zarur.

14.Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ektini tovarlarni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish oborotlari hamda respublika hududiga qilingan import oboroti bilan belgilanadi.

15.Realizatsiya qilish oborti tovarlarni xaridorga sotishdan tashqari, tovarlar, ishlarni va xizmatlarni boshqa yuridik shaxslarga bepul berish, xodimlarga ish haqi hisobiga yoki muassisa dividendlar to'lash hisobiga berish, qarz beruvchiga garov bilan ta'minlangan majburiyatlar hisobiga garov narsasini berish holatlarini ham o'z ichiga oladi.

16.Soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydigan operatsiyalar amalga oshirilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyati yuzaga keltirmaydi.

17.Importdan olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti sifatida soliq solinadigan import e'tirof etiladi.

18.Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solinadigan bazasi realizatsiya

qilinayotgan tovarlarning ishlarning, xizmatlarning qiymati asosida aniqlanadi. Soliq solish bazasi sifatida belgilangan tovarlarning realizatsiya qilish qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i summasini kiritmaydi.

19.Tovarlar o'zlarining ishlab chiqarish tannarxidan yoki tovarlarni sotib olish bahosidan past narxlarda realizatsiya qilinganda ularning tannarxi yoki xarid qilib olingan qiymati soliq solish bazasi sifatida qabul qilinadi.

20.Import qilingan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza tovarlarning bojxona qiymati, import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i summasi hamda bojxona bojlarining summolari yig'indisidan shakllanadi.

21.Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 4 toifadagi soliq imtiyozlari mavjud: soliqlardan ozod etiladigan tovarlarni realizatsiya qilish oboroti; soliqlardan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar; soliqlardan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari; soliqlardan ozod qilinadigan import.

22.Soliq imtiyozlari qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish bazasini kamayishiga olib keladi.

23.Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavka asosida aniqlanadi.

24.Bugungi kunda, qo'shilgan qiymat solig'i 20% da va 0% da soliqqa tortiladi.

25.Davlat byudeti hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i va ilgari to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat soliqlari o'rtasidagi farq to'lanadi.

26.Tovarlar sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i keyinchalik mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilsa, qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lanadigan qismini aniqlashda hisobga olinadi.

27.Mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq hisob-kitoblarini har-chorakda taqdim qilishadilar. Soliq to'lovlarini ham har chorakda amalga oshiradilar.

28.Mikrofirma va kichik korxona toifasiga kirmagan korxonalar soliq hisobotlarini oyma-oy taqdim qilishadilar.

29.Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish borasida xorij amaliyotidan

respublikamiz soliq tizimini rivojlantirishda foydalanish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

30.Yaponiya soliq tizimida mavjud bo'lgan iste'mol solig'i mohiyatan qo'shilgan qiymat solig'iga o'xshaydi.

31.Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish borasidagi xorij amaliyotidan foydalanishda respublikamiz shart-sharoitini inobatga olish zarur.

32. Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

1.aholiga naqd pulga xizmat kursatuvchi, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi korxonalar tomonidan xizmat haqini to'liqligicha hisobga olinishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 205 moddasi, 3 qismini quyidagicha qayta tahrir qilish taklif qilinadi: “tovarlar narxi o'zgarganda”.

3. qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan ushbu soliq imtiyozining maqsadga muvofiq emasligi sababli, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 208-moddasida(“Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti”), 15 bandi 3-qismida belgilangan soliq imtiyozi: “turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko'rsatish uchun yo'llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko'rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi”ni bekor qilish.

4. O'zbekiston respublikasi Soliq kodeksi 211 – moddasiga quyidagi mazmunda qo'shimcha qilish: “ kichik biznesni tashkil qilish maqsadida, tadbirkorlar tomonidan chetdan olib kiritiluvchi ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1992 yil 15 dekabr, 243 (494)-son
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 52 (i)-son
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida”gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli “Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida”gi Farmoni.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.

- 1.10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058 sonli Farmoni.
- 1.11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi PF-4059 sonli Farmoni.
- 1.12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi PF 3305-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes rivojlanishini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoni.
- 1.13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3594-sonli Farmoni.
- 1.14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1050 sonli Qarori.
- 1.15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1326 sonli Qarori.
- 1.16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlarga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi Qarori.
- 1.17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1112-sonli Qarori.

- 1.18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).
- 1.19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).
- 1.20.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
- 1.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).
- 1.22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).
- 1.23.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.
- 1.24.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan" Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 2-son, 19-modda.
- 1.25.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi «Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 75-sonli Qarori.
- 1.26.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktyabrdagi «Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan

korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 439-sonli Qarori.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning
asarlari va ma'ruzalari**

- 1.27.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1995 y. -B. 269.
- 1.28.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.
- 1.29.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2005. - B. 96.
- 1.30.Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.
- 1.31.Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.
- 1.32.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008. - B. 176.
- 1.33.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
- 1.34.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56.
- 1.35.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. -80 b.
- 1.36.Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" 2010 yilda

mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

- 1.37. Karimov I.A. "2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.38. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.39. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2014. -64 b.
- 1.40. Karimov I.A. "2015 yilda iqtisodiyotimizni tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir" 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

- 2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. - 526 b.

- 2.2.Vahobov A.,Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.
- 2.3.Jo’raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo’llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
- 2.4.Jo’raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
- 2.5.Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
- 2.6.Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
- 2.7.Meyliev O.R. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o’rni.- T.:Tamaddun, 2013.-136 b.
- 2.8.Налоги в условиях экономической интеграции. / В.С. Бард и др. под ред. проф. В.С.Барда и Л.П.Павловой. –М.: КНОРУС, 2009. -288 с.
- 2.9.Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г.Черника. М: Юнита-Дана, 2010. -345 с.
- 2.10.Налоги и налоговое право. /Под ред. А.В. Брызгалина. –М.: Аналитика-Пресс, 2010. -608 с.
- 2.11.Налоги и налогообложение./Тарасова В.Ф. и др.–М.:Финансы и статистика, -2010.
- 2.12.Русакова И.Г., Кашина В.А. Налоги и налогообложение. -М.: ЮНИТИ, -2009.
- 2.13.Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. -127 b.
- 2.14.Толкушин А.В. Налоги и налогообложения: Энциклопедический словарь. – М.: -2000
- 2.15.Брызгалин А и др. Налоги и налоговое право. –М.: Аналитика пресс, 2008. стр. 50
- 2.16.Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной –М.: ЮНИТИ, 2010. -350 с.
- 2.17.Хван Л.Б. Солиқ ҳуқуқи. - Т.: Консаудитинформ, 2001.-432 б.

- 2.18.Черник Д.Г. Налоги. 8-е издание –М.: Финансы и статистика, 2010. -430
- 2.19.Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 8-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2010. -576 с.
- 2.20.Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.
- 2.21.Toshmatov Sh. Qo'shilgan qiymat solig'i. O'quv qo'llanma. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi"; 2004 15-bet
- 2.22.Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarni roli. -T., "Fan va texnologiya"- 2008, 204 b.
- 2.23.Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiy etilgan/ A. Yuldashev. - T.: " Fan texnologiya", 2007. - 128 s
- 2.24.Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: "Norma", 2009. –184 b.
- 2.25.Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2007. –232 b.
- 2.26.Urazov K. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. –T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2003. – 164 b.
- 2.27.Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: "MUMTOZ SO'Z", 2010
- 2.28.Мандрошченко О., Пинская М. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: "Дашков и К", 2010
- 2.29.Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: "Юнити-Дана", 2010
- 2.30.Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: "Эксмо", 2010
- 2.31.Тарасова В., Владика М. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: "Кнорус". 2009
- 2.32.Пансков В.Г., Князев В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник для

- вузов. –М.: “МЦФЭР”, 2009
- 2.33.Перов А.В., Толкушкин А.В. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. -М.: “Юрайт”. 2012
- 2.34.Миляков Н.В. Налоги и налогообложения: Учебник. -М.: “Инфра-М”, 2008
- 2.35.Налоги в условиях экономической интеграции. //Под ред. проф. В.С.Барда и Л.П.Павловой. -М.: “Кнорус”, 2007
- 2.36.Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”, 2002
- 2.37.С.Фишер, Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи Экономика. –М.: Финансы и статистика, 2008 стр. 122
- 2.38.G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - Toshkent: “Sharq”, 2002.-B. 204.
- 2.39.Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. - T.: 2006. —B. 32.
- 2.40.Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
- 2.41.To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130
- 2.42.O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
- 2.43.Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
- 2.44.Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. - T.: “Akademiya”, 2007. - B. 214.
- 2.45.Almardonov M.I., Qo'zieva N.R. Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: «Iqtisod-moliya», 2007. - B. 245.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

- 2.46.Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to'lovchining

- jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.
- 2.47.Malikov T.S. Mustaqillik yillarida soliq siyosati. //Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2001. №2, - B. 26.
- 2.48.Musagaliev A. Soliqlar vositasida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №8. - B. 41-42.
- 2.49.Musalimov Sh. Byudjetlar o'rtasida soliqlarni taqsimlashning xorij tajribasi va undan foydalanish masalalari.// Moliya.-Toshkent, 2013.-№6. –B. 93-96.
- 2.50.Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob'ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.
- 2.51.Toshmatov Sh. Soliq tushumlari va stavkasini prognozlash. / Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2008. №2 - B. 50-51.
- 2.52.To'raev Sh. Xo'jalik sub'ektlari soliq yuki hisobini takomillashtirish. // Bozor, pul va kredit. -Toshkent, 2007. -№2. - B. 35-38.
- 2.53.Gadoev E.. Soliq siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. // Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2014. - B. 6-13.
- 2.54.Niyazmetov I. Soliq siyosatining 2014 yilgi asosiy yo'nalishlari – o'zini oqlagan soliq islohotlari strategiyasining izchil davomi sifatida. // Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2014. - B. 39-42
- 2.55.Iminov O., To'raev Sh. Soliq siyosatini optimallashtirish masalalari. // Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2014. - B. 42-44

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

- 3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2008.-№7.

- 3.2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2009.-№7.
- 3.3. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2010.-№11.
- 3.4. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2011.-№7.
- 3.5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2012.-№12.
- 3.6. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2013.

IV.Internet saytlari.

- 4.1. <http://www.president.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti
- 4.2. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
- 4.3. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
- 4.4. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
- 4.5. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
- 4.6. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
- 4.7. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.